

G'ARB VA RUS TILSHUNOSLIGIDA MATN NAZARIYASI OID QARASHLARNING PAYDO BO'LISHI

G'iyosiddin Abduvaxobov

Farg'ona davlat universiteti fan doktori

Nargiza Xudoyberdiyeva

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Аннотация

Ushbu maqola G'arb va Rus tilshunosligida matn nazariyasining paydo bo'lishiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga G'arb va Rus tilshunosligidagi muammo va yechimlarga oid olimlarning qarashlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Germenevtika, stilistika, ritorika, til mexanizmi, matn grammatikasi, matn kompozitsiyasi, sintagma.

Matnshunoslik bir matnning kompozitsiyasi, semasi va funksiyasini o'rganadigan tilshunoslik sohasidir. Matnshunoslik tushunchasi XX asr boshlarida o'rtaga chiqqan bo'lsa ham, ammo uning tilshunoslikning bir sohasi sifatida rivojlanishi 70-80-yillarga to'g'ri keladi. Matnshunoslik nazariyasining paydo bo'lishi Praga tilshunoslik maktabi olimlari V.Metezius, R.Yakobson, S.Trubetskoylarning qarashlari bilan bog'liq desak yanglishmaymiz. Bu olimlar bir tarafdin tilshunoslik sohasida yangi o'zgarishlarni yaratarkan boshqa tarafdin tilshunoslikning an'anaviy tadqiqot usuli bo'lgan asosiy til birliklarini tahlil qilishni davom ettirdi va til belgisini tashuvchi eng kichik birliklarni aniqladi. Shu bilan birgalikda ular matnshunoslik, ritorika, stilistika, germenevtika va adabiyot nazariyasi kabi boshqa fanlar bilan birgalikda ishlaydi va ulardan oziqlanadi. Bu sohalarning umumiy o'rganish obyekti matn sanaladi.

Matnshunoslik tilshunoslikning alohida bir sohasi ekanligini ilk marotaba P.Hartman 1968-yil Konstanzdagi bir anjumanda aytib o'tdi. Unga ko'ra "Til mexanizmi faqat so'zlar va gaplar bilan amalga oshmaydi. Inson alohida alohida so'zlar bilan, gaplar bilan emas matnlar bilan gaplashadi¹." T.M.Nikolayeva P.Hartmanning bu fikrlariga tayanib, matnshunoslik nazariyasini uch xil tarmoqqa ajratadi: umumiy matn tilshunosligi, har bir matn lingvistikasi va matn turlarini tekshirish. Matn tilshunosligi dastlabki bosqichlarida matndagi anafora, katafora, izotopiya bilan shug'ullangan va tadqiqotlar asosan, shu masalaga qaratilgan. Bu davrda matnning tuzilishiga ko'proq e'tibor qaratilgan. Matn tilshunosligi rivojlanishining keyingi bosqichlarida bu sohada talaygina tadqiqotlar amalga oshirildi. Endi tadqiqotchilar matn grammatikasini o'rganishni boshladi. Bu

¹ Peter Hartmann, "Text, Texte, Klassen von Texten", Zeitschrift für Literatur, Kunst, Philosophie, Bogawus, S. 1, 1964, s. 15-25

tadqiqotchilardan T.Todorov va V.U.Dresslar matn grammatikasini aniqlash maqsadida qoidalar, matn modellarini ishlab chiqishdi; matn kompozitsiyasi, parametrlari va ontologiyasi bilan bog'liq tadqiqotlar olib bordi. Bu borada keng omma tarafidan qabul qilingan T.Todorovning "Matn tuzilishida uslubning o'rni" asari muhim ahamiyat kasb etdi. Uning fikriga ko'ra "matn semantik, jumlaviy va og'zaki kabi uch mezonga ega²." T.Todorovning taklifiga binoan 1981-yilda "matnlilik" konsepsiyasi uchun umumiy qabul qilingan tizim yaratilgan. R.A.deBogrande va Dreslar matnlilikning yettita mezonini aniqlaydi. Bular "uyushish, muvofiqlik, maqbullik, axborotlilik, vaziyatlilik, intertekstuallik, maqsadlilik³". Ko'plab tadqiqotchilar bu me'zonlarni qabul qilib matnshunoslik tadqiqotlarini shu mezon asosida olib boradi. 1982-yil Heineman matn lingvistik tadqiqoti uchun uch xil yondashuvni belgilaydi. Bulardan birinchisi, eski frazeologik yondashuvdir. Bu yondashuvga ko'ra matnning morfologiyasi ochib beriladi. Ikkinchi yondashuv - sematik yondashuv. Bu yondashuvda matndagi chuqur ma'no munosabati uslubiy jihatdan ochib berishga qaratiladi. Uchinchisi, kommunikativ yoki pragmatik yondashuv. Unga ko'ra matnning asosiy maqsadi matnning qabul qiluvchiga ta'sir qilish usulidir. G'arb matn tilshunosligi sohasida olib borilgan ushbu tadqiqotlarga parallel ravishda tadqiqotlar Rossiyada ham olib borildi. Ulardan ba'zilari yuqorida aytib o'tilgan usul va yondashuvlar bilan parallellik ko'rsatsada, ba'zilari faqat Rossiya uchun amal qiladi.

G'arb tilshunosligiga mutanosib ravishda XX asrning birinchi choragida rus tilshunosligida ham matn nazariyasiga oid qarashlar paydo bo'la boshladi. Rus tilshunosligida o'zining beqiyos hissalarini qo'shgan olim V.Ya.Propp bo'ldi. Uning 1928-yilda yozilgan "Ertaklar morfologiyasi" (морфология волшебной сказки) nomli asari ushbu soha rivojlanishidagi ilk qadam bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Propp "matnda vazifasi o'zgaradigan va o'zgarmaydigan omillar"⁴ haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. Propp ilgari surilgan bu g'oyalar o'zidan keyingi tadqiqotchilar uchun asos vazifasini o'tadi.

Rus tilshunosligidagi matnshunoslik sohasida o'zining eng muhim hissasini qo'shgan olimlardan biri A.M.Peshkovskiydir. Uning "Rus tilshunosligi sintaksisining ilmiy yoritilishi" (Русский синтаксис в научной освещении) asarida "murakkab butunlik" atamasini keltirib o'tadi. Uning fikricha "murakkab butunlik birdan ortiq gaplarning birikishidir. Bu birikish bog'lovchilar bilan yoki bog'lovchi vazifasidagi

² Tsvetan Todorov, The Place of Style in the Structure of the Text, Literary Style, A Symposium, New York, Longman, 1971, s. 32

³ Robert Alain de Bogrande, Wolfgang Ulrich Dressler, Introduction to Text Linguistics, London and New York, Longman, 1981, s. 113

⁴ Владимир Пропп, Морфология волшебной сказки Ленинград, Academia, 1928, s. 30

so'zlar orqali hosil bo'ladi."⁵. Peshkovskiyning bu qarashlari keyinchalik Rus tilshunosligida matnshunoslikka oid nazariy qarashlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Rus tilshunosligidagi yana bir tilshunoslardan biri L.V.Shcherbadir. U 1940-yillarda sintagma termini bilan matndagi eng kichik mazmuniy birlikni aniqlashga harakat qiladi. U matnga "matn – qog'ozga yozilgan hujjat"⁶ deb ta'rif beradi. Bu davrda matn borasidagi fikrlar bir talay bo'lishiga qaramay, ular bir-biriga bog'lanmaga holda olib borilganligi uchun ham bir butunlik paydo bo'lmadi.

Rus tilshunosligida ushbu sohaning to'liq holda shakllanishi tom ma'noda G'arb tilshunosligiga yaqin deya olamiz. G'arb tilshunosligidagi yozilgan asarlar va Rus tilshunosligida qilingan mustaqil tadqiqotlar birlashishi natijasida ushbu sohaga oid qarashlar va qiziqishlar yanada ortdi. Tarjimashunoslik mutaxassisi Nikolayeva 1978-yilgi "Chet el tilshunoslikda yangiliklar" (novoye v zarubejnoy lingvistike) jurnalining "Matn tilshunosligi" sonining muharriri lavozimini egalladi va jurnalga so'zboshi yozdi. Bu muqaddimada amerikalik va nemis tilshunoslarining matn tilshunosligi haqidagi qarashlarini izohladi.⁷ Yuqoridagi taqdiqotchilar bilan bir qatorda rus tilshunosligida matn lingvistikasi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan eng asosiy olimlar I.R.Galperin, O.I.Moskalkaya, T.M.Nokolayeva, V.Y.Chernyavskayalarni keltirish mumkin. Bu olimlar 70-80-yillar rus tilshunosligida matn nazariyasiga oid qarashlarning mukammal holda shakllanishiga sababchi bo'ldi.

I.R.Galperin 1981-yil "Matn tilshunoslik tadqiqining predmeti sifatida" (tekst kak obyekt lingvisticheskogo issledivaniya) nomli asar yozdi. U amerika va nemis tilshunoslarining matn borasidagi fikrlariga qo'shilgan holda o'zining matn xususiyatlari borasidagi qarashlarini ilgari surdi. Unga ko'ra matn "informativlik, bog'langanlik, to'liqlik, o'ziga xoslik, davomiylik, intertekstuallilik va modallik"⁸ kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Galperinning ushbu asari orqali matn tilshunosligi sohasidagi umumiy savollarga javob berildi. U tilshunoslikdagi ba'zi metodlarni matn uchun ham moslashtirishga urindi. Shuningdek, u matndagi ma'lumot turlari haqida gapirib, asosan uch turni muhim deb hisoblaydi: "aniq ma'lumot (faktualnaya informatsiya), konseptual ma'lumot (konseptualnaya informatsiya), matn osti ma'lumot (podtekstovaya informatsiya)".⁹

Rus matn tilshunosligini O.I.Moskalkayasiz tasavvur etish qiyin. Uning 1978-yilda nashr qilingan "Matn tilshunoslik tushunchasi sifatida" (Teks kak

⁵ Aleksandr Peşkovski, *Russkiy sintaksis v nauçnom osveşenii*, Moskva, Izdatelstvo ministerstva prosveşeniya, 1956, s. 373.

⁶ Lev Şçerba, *Prepodavaniye inostrannih yazıkov*, Moskva, Vişşaya şkola, 1974, s. 75.

⁷ Polina TÜRKMEN DANIİL HARMS'IN 'KOCAKARI' ADLI ÖYKÜSÜNÜN METİNDİLBİLİMSEL İNCELENMESİ İSTANBUL – 2020 s 12

⁸ Polina TÜRKMEN DANIİL HARMS'IN 'KOCAKARI' ADLI ÖYKÜSÜNÜN METİNDİLBİLİMSEL İNCELENMESİ İSTANBUL – 2020 s 12

⁹ Polina TÜRKMEN DANIİL HARMS'IN 'KOCAKARI' ADLI ÖYKÜSÜNÜN METİNDİLBİLİMSEL İNCELENMESİ İSTANBUL – 2020 s 14

lingvisticheskaya ponyatiya) nomli maqolasi, 1981-yilda “Matn grammatikasi” (Grammatika teksta) nomli kitobi bu boradagi qimmatli manbalardan biridir. Moskalskaya matnni makromatn va mikromatn kabi turlarga bo’lib o’rganadi. U bu turlarning faqat mikromatn turi bilan shug’ullanadi. Unga ko’ra “matnning kommunikativ yaxlitligi har bir gapning oldingi gap bilan mazmunan bog’langanligida ko’rinadi”.¹⁰

T.M.Nikolayeva tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslik sohalarining yetuk namoyondasidir. Yuqorida nomi tilga olingan tilshunos olimlardan farqli ravishda Nikolayeva slavyan tillari bo’yicha tadqiqotlar olib borganligini va tahlilidagi misollar slavyan tillaridan olinganligini ta’kidlash o’tish joizdir. U ham rus tilshunosligida matn tilshunosligini o’rganishga asos solgan tadqiqotchilardan biridir. Ishini G’arb tilshunoslari tadqiqotlarini tushunish va izohlashga urinish bilan boshlagan olim, keyinchalik matn tilshunosligi sohasida o’zining mustaqil va dolzarb g’oyalarini yaratdi. Nikolayevaning yondashuv usuli, asosan, amaliydir, chunki u “matn lingvistikasining masqadi odamlar o’rtasidagi to’g’ri muloqotni o’rnatish”¹¹ deb ta’kidlaydi. Uning fikricha “matn tilshunosligi ikki xil yo’nalishda rivojlangan. Birinchisi, to’g’ri muloqot qilish va umuman to’g’ri matn yaratish uchun zarur bo’lgan matn tarkibiy qismlarini o’rganadigan yo’nalish. Ikkinchisi, har bir matnning chuqur ichki tahlil yo’nalishi”.¹²

V.Y.Cheryanskaya matn lingvistikasi sohasida o’zining ulkan hissalarini qo’shgan yirik rus tilshunos olimi sanaladi. U ko’pincha ilmiy tadqiqotlarida zamonaviy matn lingvistikasiga doir izlanishlar olib boradi. U Nikolayevaning fikrlariga qo’shilgan holda matn uyg’unligining muhimligini va bu uyg’unlikning psixologik ahamiyatini ta’kidlaydi. U “matn uyg’unligi matnning o’zidan emas, balki matnni idrok etishdan kelib chiqadi. Semantik jihatdan bir-biri bilan hech qanday bog’liq bo’lmagan jummalarni ham idrok etish, ongda birlashtirish va mazmunli qilish mumkin.”¹³ degan fikrni ilgari suradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib shuni aytish mumkinki, G’arb tilshunosligida matnni belgilaydigan mezonlar tadqiq etilsa, rus tilshunosligida matn kategoriyasi o’rganildi. XX asr boshlarida paydo bo’lgan matn lingvistikasiga oid qarashlar hali o’z yechimini topolmagan bo’lsa ham matn va uning turlari shakllana bordi. Hozirgi zamon tilshunosligida innovatsion rivojlanishlar, fan va texnika sohasidagi yutuqlar, buyuk inqiloblar natijasida matnning yangidan yangi turlari paydo

¹⁰ Olga Moskalskaja, Textgrammatik, Bibliographisches Institut Leipzig Verlag, 1984, s. 25-27, alinti suradan yapılmıştır Fillipov, a.g.e., s. 167-168

¹¹ Polina TÜRKMEN DANIİL HARMS’IN ‘KOCAKARI’ ADLI ÖYKÜSÜNÜN METİNDİLBİLİMSEL İNCELENMESİ İSTANBUL – 2020 s 12

¹² Tatyana Nikolayeva, “Lingvistika teksta”, Lingvističeskiy entsiklopedičeskiy slovar, Ed. Valentina Yartseva, Moskva, Sovyetskaya entsiklopediya, 1990, s. 267.

¹³ Černyavskaya, Lingvistika teksta, s. 25

bo'la boshladi. Endi tadqiqotchilar matn bilan birgalikda uning turlari ustida ham qator izlanishlar olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olga Moskalskaja, Textgrammatik, Bibliographisches Institut Leipzig Verlag;, 1984, s. 25-27, alıntı şuradan yapılmıştır Fillipov, a.g.e., s. 167-168
2. Tatyana Nikolayeva, “Lingvistika teksta”, Lingvistiçeskiy entsiklopediçeskiy slovar, Ed. Valentina Yartseva, Moskva, Sovyetskaya entsiklopediya, 1990, s. 267
3. Polina TÜRKMEN DANİİL HARMS'IN ‘KOCAKARI’ ADLI ÖYKÜSÜNÜN METİNDİLBİLİMSEL İNCELENMESİ İSTANBUL – 2020 s 14
4. Владимир Пропп, Морфология волшебной сказки Лелинград , Academia, 1928, s. 30